



ISHEMIK INFARKTNI KELIB CHIQISHI SABABLARINI ERTA ANIQLASH DAVOLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Hoshimova Nafisa Vohobovna

Qo'qon universiteti Andijon filiali

Davolash ishi yo'nalishi 24-18-guruh talabasi

Sotvoldiyev Odiljon Ilhomjon o'g'li

Gistalogiya, sitologiya va embriologiya kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17509801>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-oktabr 2025 yil

Ma'qullandi: 28-oktabr 2025 yil

Nashr qilindi: 31-oktabr 2025 yil

KEYWORDS

Ishemik infarkt, yurak mushagi, miokard, ishemiyasi, ateroskleroz, tromboz, diagnostika, elektrokardiografiya, angiografiya, profilaktika, rehabilitatsiya, yurak yetishmovchiligi, xavf omillari, davolash samaradorligi, sog'lom turmush tarzi.

ABSTRACT

Ishemik infarkt yurak mushaklarining qon bilan ta'minlanishi keskin kamayishi yoki to'xtashi natijasida yuzaga keladigan og'ir patologik holat bo'lib, u o'lim va nogironlikning eng asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada ishemik infarktning kelib chiqish sabablari, xavf omillari, erta aniqlash usullari hamda davolash samaradorligini oshirish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy diagnostika texnologiyalari va rehabilitatsiya usullarining ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda klinik kuzatuvlar, laborator va instrumental tekshiruv natijalari asosida ishemik infarktning erta aniqlashning tibbiy va ijtimoiy foydalari haqida fikr yuritiladi. Maqolada shuningdek, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, profilaktik choralar ko'rish va aholining kardiologik savodxonligini oshirish orqali kasallikni kamaytirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, erta tashxis va kompleks davolash yondashuvlari o'lim darajasini sezilarli darajada kamaytiradi hamda bemorlarning hayot sifatini yaxshilaydi.

Hozirgi zamon tibbiyotining eng dolzarb muammolaridan biri yurak qon-tomir tizimi kasalliklarining, xususan, ishemik yurak kasalligi va miokard infarktining keng tarqalganligidir. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, butun dunyoda har yili millionlab insonlar ishemik infarkt tufayli hayotdan ko'z yumadi yoki nogironlikka uchraydi. Ushbu kasallik nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida ham katta ahamiyatga ega, chunki u mehnatga layoqatli aholining salomatligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ishemik infarkt bu yurak mushaklarining qon bilan ta'minlanishi keskin to'xtashi yoki kamayishi natijasida paydo bo'ladigan nekrotik jarayon bo'lib, uning oqibatida yurakning bir qismi o'z funksiyasini yo'qotadi. Kasallikning asosiy sababi koronar arteriyalarning aterosklerotik o'zgarishlari va ular ichida hosil bo'ladigan tromblar hisoblanadi. Shu sababli, kasallikni erta aniqlash va o'z vaqtida davolash, asoratlarning oldini olish hamda bemorlarning hayot sifatini yaxshilashda muhim o'rin tutadi. Zamonaviy tibbiyotda ishemik infarktning tashxislash va davolashning bir qator samarali usullari ishlab chiqilgan bo'lsa-da, kasallikning

yuqori darajada uchrashi, ayniqsa, o'rta yoshli va keksa aholida, hali ham jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham ishemik infarktni erta bosqichda aniqlash, xavf omillarini kamaytirish, aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish bugungi kunda tibbiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Mamlakatimizda ham so'nggi yillarda kardiologik xizmatni rivojlantirish, zamonaviy diagnostika va davolash texnologiyalarini joriy etish, aholini erta skrining tekshiruvlaridan o'tkazish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish, ayniqsa, ishemik infarktni erta bosqichda aniqlashda shifokorlar, aholi va sog'liqni saqlash tizimi o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi ishemik infarktning kelib chiqish sabablari, xavf omillari, erta tashxis qo'yish usullari hamda davolash samaradorligini oshirish yo'llarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot orqali kasallikning oldini olish, erta tashxislashning afzalliklari va zamonaviy reabilitatsiya usullarining amaliy ahamiyati yoritiladi.

Asosiy qism

Ishemik infarct yurak mushaklariga qon oqimi to'satdan to'xtaganida yuzaga keladigan og'ir holat bo'lib, bunda miokard hujayralari kislorod yetishmasligidan nobud bo'ladi. Yurak faoliyatining uzluksiz ishlashi uchun qon oqimining barqarorligi zarur. Agar koronar arteriyalardan biri tromb yoki blyashka bilan to'silib qolsa, shu tomir orqali o'tuvchi qon yurak mushaklariga yetib bormaydi. Shu daqiqadan boshlab ishemik jarayon boshlanadi, 20-30 daqiqadan keyin esa to'qimalar o'lishi ro'y beradi. Patogeneza eng muhim o'rin tutuvchi omil aterosklerozdir. Qon tomir devorida xolesterin va yog' kislotalarining to'planishi natijasida blyashkalar paydo bo'ladi. Bu blyashkalar vaqt o'tishi bilan qattiqlashib, tomir elastikligini kamaytiradi. Agar blyashka yorilsa, u joyda qon ivib, tromb hosil bo'ladi va natijada koronar oqim to'siladi. Shu tarzda ishemik infarkt rivojlanadi.

Ishemik infarktning sabablari ko'p, ammo ularning aksariyati turmush tarzi bilan bog'liq. Asosiy xavf omillariga arterial gipertoniya, yuqori qon bosimi tomir devorlariga ortiqcha yuklama beradi, natijada ularning ichki qavati shikastlanadi. Dislipidemiya - xolesterin va yog' fraksiyalarining muvozanatsizligi blyashkalar paydo bo'lishiga olib keladi. Chekish - nikotin qon tomirlarini toraytiradi, kislorod yetkazib berilishini kamaytiradi. Qandli diabet - glyukoza almashinuvi buzilishi tufayli tomirlar devori mo'rtlashadi, ateroskleroz tez rivojlanadi. Ortiqcha vazn va kamharakatlik metabolizm buzilib, yurakka yuklama ortadi. Stress va asabiy zo'riqish yurak urishini tezlashtiradi, qon bosimini oshiradi. Irsiy moyillik oila tarixida yurak kasalligi mavjud bo'lsa, xavf darajasi yuqoriroq bo'ladi. Ushbu omillar yig'ilib, yurak mushaklari kislorod tanqisligiga duchor bo'ladi. Natijada, yurak to'qimalari yetarlicha energiya ololmaydi va hujayra membranalar parchalanadi.

Klinik belgilariga ishemik infarktning eng xarakterli belgisiga ko'krak qafasidagi kuchli og'riq bo'ladi. U ko'pincha chap qo'l, jag', yelka yoki bo'yin sohasiga tarqaladi. Og'riqning davomiyligi odatda 20 daqiqadan oshadi va oddiy og'riq qoldiruvchi vositalar bilan ketmaydi. Bemor ko'pincha nafas qisishi, sovuq ter bosishi, qon bosimining tushishi kabi holatlardan shikoyat qiladi. Ayrim hollarda og'riq o'rniga og'irlik hissi, ko'ngil aynishi yoki ich qorin sohasida noqulaylik seziladi. Qariyalar va diabet bilan og'rigan bemorlarda og'riqsiz infarkt ham kuzatiladi, bu esa tashxisni murakkablashtiradi.

Kasallikni erta bosqichda aniqlash hayot uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuning uchun diagnostika jarayonida quyidagi usullar keng qo'llaniladi:

Elektrokardiografiya EKG - infarkt paytida yurakning elektr faolligida o'zgarishlar bo'ladi, ST segmentining ko'tarilishi yoki teskari T to'lqinlari aniqlanadi.

Biokimyoviy tahlillar - qon zardobida troponin, kreatinfosfokinaza KFK, laktatdehidrogenaza LDG kabi markerlarning ortishi infarktni tasdiqlaydi.

Ekokardiografiya - yurak mushaklarining qisqarish qobiliyatini baholash imkonini beradi.

Koronar angiografiya - qon tomirlarida to'siq joylashgan segmentni aniq ko'rsatadi.

Kompyuter tomografiyasi - murakkab holatlarda yurak tomirlarining tuzilishini batafsil o'rganish uchun qo'llanadi. Erta tashxis qo'yish natijasida shoshilinch yordam ko'rsatish imkoniyati oshadi va yurak to'qimalarini saqlab qolish ehtimoli ortadi.

Ishemik infarktni davolashda asosiy maqsad yurakka qon oqimini tiklash va zararlangan mushaklarni saqlab qolish. Shoshilinch yordam bosqichi hayotiy ahamiyatga egadir. Trombolitik terapiya bu usul orqali tomir ichidagi ivigan qon eritiladi. Fibrinolitik preparatlar streptokinaza, alteplaza ishlatiladi. Eng muhimi davolash infarkt boshlanganidan so'ng 3–6 soat ichida boshlanishi kerak. Antikoagulyant va antitrombotsitar dorilar geparin, aspirin, klopidoqrel kabi vositalar yangi tromb hosil bo'lishining oldini oladi. Koronar angioplastika va stentlash, agar dori bilan qon oqimi tiklanmasa, shifokor tomir ichiga stent o'rnatadi. Bu usul qon aylanishini tiklaydi va yurak hujayralarini kislorod bilan ta'minlaydi. Yurak faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi dorilar bemorlarning qon bosimini, yurak urishini, kislorod darajasini barqarorlashtirish uchun beta-blokatorlar, ACE-ingibitorlar, nitratlar ishlatiladi.

Kasallikdan so'ng bemor asta-sekin jismoniy faollikka qayta boshlaydi. Sog'lom ovqatlanish, jismoniy mashqlar, psixologik qo'llab-quvvatlash va dori rejimini qat'iy bajarish zarurdir. Infarktning oldini olish davolashdan ko'ra osonroq va samaraliroqdir. Profilaktik choralar kasallik xavfini sezilarli kamaytib beradi. Bularga qon bosimini me'yorda ushlab turish, yog'li va sho'r ovqatlarni cheklash, meva-sabzavotni ko'paytirish, chekish va spirtli ichimliklardan butunlay voz kechish, kunlik jismoniy faollikni oshirish yengil yugurish, yurish, suzish, stressni kamaytirish, yetarli uyquni ta'minlab berish, yiliga kamida bir marta kardiolog ko'rigidan o'tish kerakdir. Profilaktika choralari nafaqat infarktni, balki boshqa yurak kasalliklarini ham kamaytiradi. Davolash samaradorligini oshirish uchun erta tashxis va tezkor yordam berish, zamonaviy diagnostika texnologiyalarini joriy etish kerakdir. Shifokor va bemor o'rtasida muntazam muloqotda bo'lishi kerakdir. Eeabilitatsiya dasturlarini kengaytirib, aholining kardiologik savodxonligini oshirish kerakdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'z vaqtida aniqlangan infarkt holatlarida o'lim darajasi 2–3 barobar kamayadi, bemorlarning mehnatga layoqati esa tez tiklanadi.

Xulosa

Ishemik infarkt bugungi kunda butun dunyo tibbiyotining eng og'ir muammolaridan biri bo'lib, u yurak faoliyatining keskin buzilishi bilan kechadigan hayot uchun xavfli holatdir. Kasallikning keng tarqalishiga asosan noto'g'ri turmush tarzi, ortiqcha vazn, stress, chekish, gipertoniya va diabet kabi omillar sabab bo'lmoqda. Shuning uchun har bir inson yurak sog'lig'iga e'tiborli bo'lishi, muntazam profilaktik tekshiruvlardan o'tishi va sog'lom odatlarni shakllantirishi zarurdir. Yurak mushaklariga qon yetishmasligi tufayli yuzaga keladigan zararni kamaytirish uchun erta tashxis muhim o'rin tutadi. Elektrokardiografiya, laborator tahlillar va angiografiya kabi usullar yordamida infarktning ilk bosqichida aniqlanishi bemorning hayotini saqlab qolish imkonini beradi. Davolashda zamonaviy trombolitik terapiya, stentlash, antitrombotsitar dorilar va rehabilitatsiya choralari kompleks qo'llanilganda natijalar ancha

yaxshilanadi. Shuningdek, yurak kasalliklari profilaktikasini kuchaytirish, sog'lom ovqatlanish madaniyatini targ'ib qilish, jismoniy faollikni oshirish va ruhiy barqarorlikni saqlash infarkt xavfini kamaytiradi. Sog'lom turmush tarziga rioya qilish, shifokor tavsiyalarini bajarish hamda o'z sog'lig'iga mas'uliyatli munosabatda bo'lish yurak faoliyatini mustahkamlashda eng ishonchli yo'ldir. Yig'ilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ishemik infarktni erta aniqlash, zamonaviy davolash yondashuvlarini qo'llash va reabilitatsiya dasturlarini kengaytirish orqali o'lim ko'rsatkichlarini kamaytirish hamda bemorlarning hayot sifatini yaxshilash mumkin. Demak, ushbu yo'nalishda tibbiyot xodimlari, bemorlar va jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlari sog'lom avlodni ta'minlashda muhim o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. To'xtayev, A. A., & Rasulov, M. M. Kardiologiya asoslari. – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2021. – 380 b.
2. Karimov, B. R. Yurak qon-tomir tizimi kasalliklari diagnostikasi va davolash usullari. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020. – 290 b.
3. Борисов, В. Н., & Сидоренко, А. П. Кардиология. Национальное руководство. – Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2021. – 864 с.
4. Кушнер, А. И., & Лебедев, А. А. Ишемическая болезнь сердца: патогенез, диагностика и лечение. – Санкт-Петербург: СпецЛит, 2019. – 312 с.
5. Назарова, Г. Р. Ishemik yurak kasalliklarida profilaktika va sog'lom turmush tarzi omillari. – Toshkent: "Tibbiy ta'lim", 2023. – 198 b.

INNOVATIVE
ACADEMY